

SHAXSNING RIVIJLANISHINING INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING ROLI

*University of business and science
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari
Xudaynazarova Munira, Abdullayeva Tamilaxon*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsning rivojlanish jarayonida individuallik xususiyatlarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shaxsning individual fazilatlari — temperament, xarakter, qobiliyat, ehtiyoj va qiziqishlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi uning ijtimoiy hayotga moslashuvi hamda ta’lim-tarbiyada muvaffaqiyat qozonishida muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi. Tadqiqot davomida shaxs rivojida psixologik va pedagogik yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, tarbiya jarayonida individuallikni hisobga olishning samaradorlikka olib kelishi ilmiy tahlil qilingan. Maqolada shaxsning rivojlanishida individual xususiyatlarning roli nazariy va amaliy misollar asosida ochib berilgan bo‘lib, u pedagogik jarayonlarda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni keng qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, rivojlanish, individuallik, xarakter, temperament, iqtidor, ijodkorlik, ijtimoiylashuv.*

Shaxs rivojlanishi insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, u biologik asoslar bilan bir qatorda ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Har bir individua o‘ziga xos individuallik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular shaxsning jamiyatdagi o‘rnini, faoliyatdagi muvaffaqiyatini va ijtimoiy moslashuvini belgilaydi. Shaxs rivojlanishini o‘rganish psixologiya, pedagogika, sotsiologiya kabi fanlarning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir.

Individuallik — bu har bir shaxsning boshqa odamlardan ajralib turadigan o‘ziga xos xususiyatlari majmui bo‘lib, ular shaxsning qiziqishlari, qobiliyatları, xarakteri, tafakkuri va faoliyatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiyada shaxsni o‘rganish, uning rivojlanishidagi individuallik xususiyatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir insonning jamiyatda tutgan o‘rni va muvaffaqiyati uning shaxsiy fazilatlari hamda individualligiga bevosita bog‘liqdir.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsning individuallik xususiyatlarini inobatga olish, ularning ijtimoiy hayotdagi rolini chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zero, insonning ijodiy salohiyati, intellektual imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi.

Psixologiya fanida **shaxs** tushunchasi eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Shaxsning mohiyatini aniqlash uchun uni boshqa atamalar – *inson, individ, shaxs, individuallik* qatorida ko‘rib chiqish lozim. Inson o‘ta murakkab

mavjudot bo‘lib, u tashqi olam, ijtimoiy olam va ichki olamda faoliyat yuritadi. Yurgen Xabermas ta’rifiga ko‘ra, inson uch xil olamda yashaydi:

Tashqi dunyo - tabiat qonunlari va fan-texnika taraqqiyoti orqali o‘zlashtiriladigan moddiy olam;

Ijtimoiy dunyo - jamiyatdagi munosabatlar, mehnat faoliyati, shaxsning ijtimoiy o‘rni va vazifalari;

Ichki dunyo - shaxsning kechinmalari, ijodiy faoliyati, o‘zini anglash va individualligi.

Demak, insonning shaxs sifatida shakllanishi faqat biologik omillarga bog‘liq bo‘lmay, balki ijtimoiy tajribasi va ruhiy dunyosi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shaxsni o‘rganishda asosiy nuqta – uning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faoliyati hisoblanadi.

Individuallik – bu insonning o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlari majmui bo‘lib, uning boshqa insonlardan farqlanishini ta’minlaydi. Har bir shaxsning xarakteri, tafakkuri, emotsiyal reaksiyalar, temperament turi va qiziqishlari uni boshqalardan ajratib turadi. Bu jihatlar birgalikda shaxsning o‘zini anglashiga, jamiyatda faol ishtirok etishiga va maqsadlariga erishishiga yordam beradi.

Inson rivojlanishi tug‘ma va orttirilgan xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali amalga oshadi. Shu jarayonda individuallikning quyidagi rollarini alohida ta’kidlash mumkin. Individuallik shaxsning rivojlanishida quyidagi yo‘nalishlarda katta rol o‘ynaydi:

Bilim olish jarayonida - o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlari turlicha bo‘lgani uchun ta’limda differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega. Masalan, matematikaga qiziqqan o‘quvchi analitik tafakkurini rivojlantirsa, badiiy ijodga moyil o‘quvchi estetik didini boyitadi.

Kasbiy shakllanishda - har bir shaxsning individualligi uning kelajakdagi kasb tanlashida va muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Inson o‘z qobiliyatiga mos faoliyatni tanlaganda, samaradorlik ham, qoniqish ham yuqori bo‘ladi.

Jamiyatdagi munosabatlarda - individuallik shaxsning ijtimoiy guruhdagi o‘rnini belgilaydi. Faollik, liderlik, empatiya yoki muloqot qobiliyati insonning boshqalar bilan munosabatlarini samarali qiladi.

Ijodiy rivojlanishda - individuallik ijodiy fikrlashning manbai bo‘lib, yangicha g‘oyalar yaratish, muammolarga noodatiy yondashuv topishda asosiy rol o‘ynaydi.

Psixologiyada individuallik shaxsning psixik jarayonlari va holatlari bilan bevosita bog‘liq holda talqin qilinadi. Temperament, xarakter va qiziqishlarning uyg‘unlashuvi insonning irodaviy faoliyatiga ta’sir qiladi. Pedagogikada esa individuallik o‘quv jarayonida har bir o‘quvchiga individual yondashuv zarurligini

ko'rsatadi. Masalan, vizual materiallarni tez o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan eshitib idrok qiluvchi o'quvchining o'qitish usullari farq qiladi.

Jamiyat har bir shaxsdan muayyan ijtimoiy qoidalar va me'yorlarga amal qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, jamiyatning rivojlanishi ham individualliklarning uyg'unlashuvi orqali amalga oshadi. Innovatsiya, ijodkorlik va yangilik sari intilish aynan shaxsiy individuallik natijasidir. Agar jamiyat individuallikni qadrlamasa, u holda ijodiy taraqqiyot sekinlashadi.

Shaxsning rivojlanishida tarbiya jarayoni individuallik xususiyatlari bilan uyg'unlashganda, yuqori natijalar berishi ilmiy tajribalar bilan isbotlangan. Pedagog A. S. Makarenko shaxsni tarbiyalashda "hamma uchun bir xil yondashuv emas, balki har bir bolaning o'ziga xosligini hisobga olish" zarurligini ta'kidlagan. Demak, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning tabiiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirish - zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Shaxs jamiyat bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va ijtimoiylashuv jarayonida o'z individualligini namoyon qiladi. Bir tomonidan, jamiyat insondan muayyan ijtimoiy qoidalar va me'yorlarga amal qilishni talab qiladi, ikkinchi tomonidan esa individuallik shaxsning o'ziga xosligini saqlash imkonini beradi. Ushbu uyg'unlik shaxsning barkamol rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi.

Xulosa. Shaxs rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda individuallik xususiyatlari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Individuallik shaxsning ijtimoiylashuvini, ijodiy qobiliyatlarini, xarakter va temperamentini belgilaydi hamda uni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida har bir insonning individualligini hisobga olish, uni qo'llab-quvvatlash shaxs kamolotini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, shaxsning rivojlanishida individuallik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Har bir insonning o'ziga xos qobiliyati, xarakteri, dunyoqarashi va qiziqishlari uning jamiyatdagi faoliyatini belgilaydi. Shaxsning individualligini rivojlantirish orqali biz nafaqat uning shaxsiy kamolotiga, balki butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qilamiz.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning individualligini inobatga olish, ularga shaxsiy yondashuvni qo'llash, ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash - bu kelajakda barkamol, mustaqil va ma'suliyatli avlodni shakllantirishning eng muhim omillardan biridir. Shu boisdan, shaxs rivojlanishidagi individuallik xususiyatlari nafaqat psixologik-pedagogik tadqiqotlarda, balki amaliy hayotda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xaydarov, Sulaymon Amirqulovich. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. 2025.

2. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O'quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o'qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
3. Хайдаров. С. (2023). Pedagogik faoliyatda o'qituvchi o'zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
4. Хайдаров. С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
6. Xaydarova, S. ., & Qo'chqorova, Z. (2023). SHAXS RIVOJLANISHINING INDIVIDUALLIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING ROLI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(8), 22–26S
7. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In Conference Proceedings (pp. 41-43).